

O'ZBEK ADABIYOTINING BETAKROR SO'Z USTASI

Abdurahmonova Durdona

O'zbekiston jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti

Mohir hikoyanavis, o'zbek adabiyotining eng durdona asarlarini yozgan yozuvchilardan biri - Abdulla Qahhorning asarlarini har bir kitobxon qo'ldan bermay qayta- qayta o'qigan. SHular qatori men ham bu yozuvchi ijodiga qiziqaman va har safar yozuvchining kitoblarini qo'limga olganimda , avval o'qigan bo'lsam ham , yana o'qigim kelaveradi. Chunki bu yozuvchi o'z asarlarida kam so'z qo'llab , ko'p ma'no ifodalaydi. Shuning uchun ham adabiyot olami Abdulla Qahhorni „so'z ustasi , mo'jizakor adib “ nomlari bilan ataydi.

Adib Qo'qonda Ko'mir bozori mahallasining temirchi oilasida 1907-yil 17-sentabrda dunyoga kelgan . Demak , adibning yoshligi Qo'qon atrofidagi Oqqo'rg'on, Buvayda , Yaypan , Olqor kabi qishloqlarning chang ko'chalarida o'tganligini tahmin qilsak bo'ladi. Abdulla Qahhor birinchi eski maktabda, keyinchalik esa jadid maktabida tahsil oladi. Maktabni bitirib, 1930- yilga qadar O'rta Osiyo universitetining pedagogika fakultetida o'qiydi. Va umri davomida juda ko'plab janrlarda asarlar yozadi. Ularga roman , hikoya , ocherk va pyesalar kiradi. Yani shu janrlarda , balki , bundanda ko'plab janrlarda ijod qilgan. Hattoki, yozuvchi yoshligida she'r yozganini ham o'z tarjimai holida aytib o'tgan . Bu esa adibning mahoratini yaqqol ko'rsatib bergan, desam mubolag'a bolmaydi.

Abdulla Qahhor ijodiga namunalar keltiradigan bo'lsam , uning „Sarob“ romani kitobxonlar tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olingan. Asar 1934-yilda yozilgan bo'lib , sho'ro davrlariga qarshi olib borilgan kurashlar badiiy jihatdan gavdalantirilgan . Asarning bosh qahramoni -- Rahimjon Saidiy bo'lib , „Saidiy harakatlari foydasizdir, uning amallari hech qachon ro'yobga chiqmaydi va sarob bo'ladi “ degan badiiy ma'no ifodalangan. Va yana Salimxon, Abbosxon, Murodxo'ja, Soraxon, Munisxon kabi obrazlar asarni to'liq gavdalantirib bergan. Asarda Saidiy tilidan shunday deyiladi: „ Olam yaxshi. Hayot go'zal! Natijasiz mehnat bo'lmaydi “. Bu gaplarni qisman eshitib, ijobiy fikr bildirishga shoshilmang. Chunki Saidiy juda ichkilikka berilgan inson, shuning uchun ham uning sog'lig'i yomonlashib boraveradi. Natijada Saidiyning ulfati – Murodxo'ja – uni jinnixonaga tashlab keladi. Xullas, bu roman orqali mayxo'rlikka berilgan insonlarning va shuning bilan birga, ijobiy xarakterli odamlarning hayot tarzi navbatma – navbat yoritib berilgan.

Yozuvchining dastlabki kitobi aslida „ Qishloq hukm ostida“ deb nomlangan. Bu kitob 1932- yilda yozilgan. Bundan keyin esa „ Hikoyalar “

to'plami ,,Kampirlar sim qoqdi" ,,O'tmishdan ertaklar" (avtobiografik asar), ,,Xotinlar" ,,O'g'ri" ,, Bemor", ,, Anor" ,, Sinchalak" kabi dunyoga mashhur kitoblari bosmadan chiqarilgan. Bulardan ,,Sinchalak" qissasi 1958- yilda yozib tugatilsada, 1959-yilda kitob shaklida nashr etiladi. Asarda Saida Aliyeva (,, Ishlab chiqarishda , jamoat ishida erkaklardan qolishmagan holda , yana bola tug'ib o'stiradigan ayollarga jamiyat va davlat alohida g'amxo'rlik qilishi kerak ,degan gapni hali ko'p odam yaxshi tushunib yetgan emas " deb o'ylovchi) , Arslonbek Qalandarov (,, Xotin kishi rahbarlik qilsa , kalavasi uchuni yoqotib qo'yadigan " odam) , Eshon (,, Gapga kelganda yo'talidan bo'ron qo'poradigan " odam) kabi o'z xarakteriga ega obrazlar ishtirok etgan.

Keyingi dunyoga mashhur hikoyasi bu - ,, Bemor". Bu asar bir ayolning kasal bo'lib qolishi bilan boshlanadi. Keyin uning qo'li kalta eri – Sotiboldi - xotinini turli yo'llar bilab davolashga harakat qiladi. Uni o'qitadi, qoqtiradi , tabibga ham olib boradi, ammo bitta joyga bormaydi: kasalxonaga. Chunki unga pul kerak edi. Asarda bu shunday ajoyib tasvirlangan: ,, Do'ktirxona deganda Sotiboldining ko'z- o'ngiga izvosh va oq podshoning sur'at solingan yigirma besh so'mlik pul kerak edi". Sotiboldi bu pulni xo'jaynidan ham so'rab ko'radi, ammo bermaydi, hatto eshitmaydi. Shu bilan bir kuni kasal juda og'rib qoladi. Shunda qo'shnisi bir kampirni chaqiradi. Kampir esa begunoh qizchani erta tong qilgan duosi ijobat bo'lishini aytib, qizchani uyg'otishni aytadi. Bu holat shunday tasvirlangan: ,,...Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi. Keyin ota-onsining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib kampir o'rgatgancha duo qildi. ,, xudoyo ayamning daydiga davo bergin" deb duo qilishiga qaramasdan bemorning ahvoli kundan – kunga yomonlashib boravedi. Sotiboldi savat to'qiydi va sotadi, hatto qarz ham oladi. Keyin bemorni chilyosin qildiradi. Xotini o'sha kecha ko'zini ochadi, qizchasini sahar tong uyg'otmasligini ham so'raydi eridan, keyin o'sha kecha uhlab uyg'onmiydi. Shu bilan asar tugaydi.

Bu asari orqali yozuvchi nima demoqchi? Yani bu yerda faqat Sotiboldining xotini kasal emas, butun jamiyat kasal. Qanday deysizmi? O'sha paytda Sotiboldi so'ragan pulni bersa bo'lardiku xo'jayini yoki nega tabib undan qon oladi, axir bemor o'zi nimjon bo'lsa? Buning sababi boya aytganimdek, jamiyatning ko'zi ko'rliqi, qulog'l karligidir. Bekorga adib ,,Osmon yiroq , yer qattiq" deya epigref bermagan bu hikoyasi uchun!!!

Mening o'ylashim bo'yicha , Abdulla Qahhor asarlarini o'qimagan shaxs bo'lmasa kerak . Chunki bu yozuvchining o'lmas asarlari darsliklarda qisqa bo'lsa ham berilgan. Bundan tashqari , hozirgi kunda yangi janr bo'lib hisoblanayotgan realistik hikoyalarning taraqqiy topishida Abdulla Qahhorning o'rni beqiyosdir . XX asrning 20 –30- yillarida , yani o'zbek adabiyoti yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan paytlarida , adib hikoyachilikning

rivojiga, xuddi A. Qodiriy o'zbek romanchiligiga, Cholpon esa o'zbek adabiyoti she'riyatiga qo'shgan hissasi kabi kattadir. Shuning uchun adibning asarlarini o'qigan har bir kitobxon o'zida yangi – yangi qirralarning kashf etilayotganini, asarning badiiy go'zalligi va samimiyligini sezib boraveradi.

Misol tariqasida, Abdulla Qahhor tarbiya haqida o'z tabiri bilan aytgan gaplarini ko'ring: „Yaxshi tarbiya ko'rgan odamning xislatlaridan biri shuki, bunday odam o'z faoliyatida boshqalardan bir qadam oldinga o'tsa darrov orqaga qaraydi, sheriklariga yordam qo'lini uzatadi, safini kengaytirib, yangi g'alabani ko'zlaydi“, yana ijod haqida: „inson ichki dunyosining chuqur joylarigacha o'zida ko'rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun shoshmashosharlik va tumtaroq gaplar bilan yozilgan silliqqina qalin „asar“lardan ko'proq foydalidir“. So'zim boshida aytganimdek, Abdulla Qahhor so'z ustasi bo'lishi bilan birga, o'zbek adabiyotining tanqidchilaridan ham biridir. Adib O'tkir Hoshimovning „Cho'l havosi“ asariga shunday fikr bildiradi: „Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan asar“ deb aytgan.

Ko'rib turganingizdek, Abdulla Qahhor betakror yozuvchilarimizdan biridir. U yurt kelajagi uchun jon kuydirib, yoshlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishni doim ustuvor vazifa deb bilgan. Shuning uchun ham u hayotdagi inson tabiatining turli-tuman nuqsonlarini o'z asarlarida tanqid ostiga olgan. Albatta, odamzod bor ekan, dunyoda yovuzlik, kimnidir ko'rolmaslik, bahillik, maqtanchoqlik va turli xil yomon qusurlar paydo bo'laveradi. Ammo bu illatlar insonning qadr – qimmatini pasaytirgani uchun ijod ahli buni o'ziga bosh mavzu qilib olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Registon Kutubxonasi. SHarafjon Sariyev. Toshkent „REGBOOKS“ 2020
2. Internet research. www.ziyonet.uz
3. Abduraxmonov G'. „Rustamov A. Qadimgi turk til. Toshkent. „O'qituvchilar nashriyoti, 1982.
4. Aydarov G. Yazik orxonskogo pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti VII veka. Alma-Ata, Izd-vo „Nauka“,1971.
5. Adabiyot darsligi. 6(I qism),8-sinf. Toshkent. 2017, Manaviyat, 108-118-betlar.
6. <https://doi.org>
7. <https://www.ziyouz.com>
8. <https://library>
9. Abduraxmonov G'. Toshkent, „Fan“ nashriyoti,1984



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



10. Adabiyot. S. Ahmedov va boshq. Toshkent „Manaviyat“ Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

